

SURXONDARYO VILOYATIDA SHAKLLANGAN BAXSHICHILIK MAKTABLARIDA USTOZ-SHOGIRDLIK AN'ANALARI

Boborahimov Shoxruhbek¹

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

KEYWORDS

Jirmunskiy, epos, Sherobod
dostonchilik maktabi, Sherna.

ABSTRACT

Ushbu maqolani yozishda, Surxondaryo viloyatida XX asr boshlarida shakllangan dostonchilik maktablarida ustoz-shogirlik an'analarning yo'lga qo'yilishi, dostonchilik maktablarida dastlab yetishib chiqqan ustoz-baxshilar hayoti va faoliyatini o'rganish, ustoz-shogirdlik an'analari boshqa viloyatlar dostonchilik maktablaridan farq qiladigan tomonlarini ochib berish muammo sifatida belgilab olindi.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.15354652**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

KIRISH.

Yangillanayotgan O'zbekistonda madaniy merosni saqlash va kelajak avlodga yetkazish bugungi kunning asosiy muammoli vaziyatlaridan biri sifatida qaralib kelinmoqda. Shu ma'noda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019 yilning 6-aprelida Termiz shahrida Xalqaro baxshichilik san'ati festivalida ta'kidlaganidek: "Baxshilar nafaqat xalq o'tmishining aks-sadosi, ayni paytda bugungi kunning ham jarangdor ovozidir"². Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohatlar natijasida yoshlarning xalq og'zaki ijodiyotiga bo'lgan intilishlarini qo'llab-quvvatlash, dostonlarni etnografik jihatdan ilmiy tahlil etish, baxshichilikning etnomadaniy jarayonlarga ta'sirini etnografik yo'nalishda tadqiq etish bugungi kunning zaruriyatidir. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonda baxshichilik san'atini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qabul qilingan qarorida belgilangan vazifalarni bajarish yuzasidan ishlab chiqilgan "Yo'l xaritasi"ni amalga oshirish yuzasidan qator amaliy ishlar bajarilmoqda.

¹ Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti magistranti

² <https://zamin.uz/madaniyat/52015-Mirziyoyev-Surhondaryoda-xalqaro-baxshichilik-sanati-festivali> ochilishida-nutq-so'zladi.html

Hozirgi globallashuv davrida tijorat vositasiga aylangan “Ommaviy madaniyat” shou-biznesining salbiy ta’siri tobora kuchayib borayotgan bir sharoitda folklor san’atiga e’tibor, qiziqish susayib borayotgan ko’p joylarda unutilib, himoya muhofazasiga muhtoj bo’lib turganligi kuzatilmoqda. Xalqimiz madaniyatining hayotbaxsh sarchashmasi bo’lgan baxshichilik san’atini yanada rivojlantirish uning milliy, madaniyatimiz va san’atimizdan o’rni va ahamiyatini yuksaltirish, yosh avlodni milliy o’zlikni anglash vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash maqsadida manashu kichikkina monografiyani tayyorlashga bel bog’ladik. Yoshlarga baxshichilik san’atining sara namunalarini to’plash, fondini yaratish, ularning audio va video variantlarini ko’paytirish bu sohasi yurtimizda va dunyoda keng targ’ib etish uchun televideniya va internet imkoniyatlaridan samarali foydalanish bugungi kun talabi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METADOLOGIYA.

O’zbek xalqi badiiy adabiyotining ajralmas qismi hisoblangan xalq og’zaki ijodining turmush tarzimizdagi ahamiyati bugungi kunda oshib bormoqda. Shu asnoda xalqimizni insonparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, oilaparvarlik, mardlik, jasurlik hamda sevgi vafoga sadoqat ruhida qarash ruhida tarbiyalash muhim ahamiyatga egadir. Etnografik tadqiqotlar jarayonida shu narsa ma’lum bo’ldiki, dostonlar baxshilarni sinovlardan o’tkazgan, baxshi bo’lish ham tabiiy qobiliyat ham katta mehnat evaziga bevosita bog’liq bo’lib, xalqni ishontirish uchun so’z va do’mbira quvvati bir-birini to’ldirgan. Aks holda xalq baxshi bo’lish ilinjida yurganlarni davraga qabul qilmagan.

Surxondaryo dostonchiligining ildizlari juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Markaziy Osiyo hududida, ilk madaniyat o’chog’i bo’lmish bu diyorda dostonchilik an’analari miloddan avvalgi VI-V asrdayoq keng taraqqiy topganligiga oid ayrim ma’lumotlar mavjud. Surxondaryo va Qashqadaryo vohalarida eng keng tarqalgan tarixiy, bahodirlik, ishqiy dostonlardan “Alpomish”, “Avazxon”, “Rustamxon”, “Go’ro’g’li” va boshqalarni tilga olish mumkin. Ushbu voha dostonchiligi juda qadimiy, ayni paytda hozirga qadar yaxshi saqlangan mahalliy udum va an’analariga ega. U o’ziga xos adabiy-nasriy, she’riy, shuningdek, musiqiy-ijodkorlik xislatlar bilan ta’riflanadi.

Baxshilik va baxshichilikning e’tiborga molik yana bir xususiyati ustoz va shogirdlik an’analaridir, ajdodlar va avlodlar, meros va vorislik, kecha bilan bugunning, bugun bilan ertaning o’zaro aloqalari unda tajassumdir. Boysun-Sherobod baxshichilik maktabiga Surxondaryo viloyatidagi: Sherobod, Boysun, Jarqo’rg’on va Denov tumanlari, Qashqadaryo viloyatidagi Guzar, Dehqonobod tumanlari, Turkmanistonni Chorshangi tumani, Tojikistonni Qabadiyon va Shartuz tumanlarida yashab ijod etgan baxshilar, asosan, Surxon baxshichilik maktabining ijodiy mahsulidir. Bular yuqorida eslatganimiz Mardonaqul Avliyoqul o’g’li, Ahmad yuzboshi, Saodat yuzboshi, Chori yuzboshi, Normurod Shernazar o’g’li, Jo’ra Eshmirzo o’g’li, Xudoyqul Laqay, Eson Shomurod o’g’li va boshqalar Shernazar baxshining shogirdlaridir³. A. Qahhorovning “Yangi dostonlar” kitobida Mardonaqul Avliyoqul o’g’li

³ G.Ahmedova., O’zbekistonning janubiy hududlarida baxshichilik an’analarining etnomadaniy jarayonlarga ta’siri. Dissertatsiya. Termiz-2022.

Sherna maktabining iqtidorli vakili sifatida qaralgan va uning ijodi yuzasidan muhim tahliliy mulohazalar keltirilgan. “Mardonaqul baxshi sakkiz yoshida yetim qolgan, o‘n olti yoshida Sherna baxshiga shogird tushgan. Ustozidan besh yil saboq olib, “Malla savdogar”, “Oltin qoboq”, “Sanam Gavhar”, “Nurali”, “Olchinbek”, “Alpomish” kabi o‘nlab dostonlarni o‘rganib kuylaydigan bo‘lgan. O‘z navbatida, Mardonaqul baxshi ham “Umir baxshi Safar o‘g‘li, Yusuf O‘tagan o‘g‘li, Bo‘ri Ahmedov, Qiyom Choriyev, Avaz Olimov, Bozor baxshi, Karim Mallayev, Chorshanbi Rahmatullayev kabi o‘nlab shogirdlar yetishtirgan”. Shogirdlar ham ustoz izidan borib turli tuman va viloyatlardan shogirdlar yetishtirgan⁴.

O‘zbeklarda xalq dostonchilarini shoir deb ham atashadi. Og‘zaki nutqda shoir arabcha so‘z bo‘lib, adabiyot vakili, she‘riy asar ijodkori, ko‘chma ma’noda hozirjavob, shirinsuxan shaxsga nisbatan ham qo‘llaniladi. Xalq ijodida epik asar ijodkori va yangi doston yaratuvchilar-baxshilarni shoir deyishadi. Xorazmda doston kuylovchilarni baxshi deb kelganlar. «Baxshiy» so‘zi fors tilidagi «baxshidon» so‘ziga yaqin bo‘lib, «Baxshidon» so‘zini o‘zbekchaga o‘g‘irganda «bag‘ishlamoq» «in‘om qilmoq» ma’nolarini bildiradi va Xorazmda baxshilar ijodiga mos keladi⁵. Xaqiqatdan ham, baxshilar bir voqeaga bag‘ishlangan dostonlarni yoddan o‘z boshidan kechirganday qilib san‘atkorlik bilan ijro qilib kelganlar. O‘zbek xalq dostonlarining tarixiy-madaniy ahamiyati tengsizdir. Sirasini aytganda, hudud aholisi nafaqat dostonlarni, balki ularni mahorat bilan ijro etgan baxshi, shoirlarni ham nihoyatda hurmat qilishgan va sevishgan. Ana shunday so‘zga chechan, mohir baxshilardan biri Shernazar baxshi bo‘lgan, xalq uni sevib “Sherna baxshi” degan. Sherna baxshi (Shernazar Berdinazar o‘g‘li) ijodini yaqindan o‘rgangan taniqli folklorshunos M.Afzalov u haqda shunday yozgan edi: “Sherna o‘z davrining eng chechan, so‘zga boy, san‘atkor xalq shoirlaridan biri bo‘lib, shogirdlar yetishtirishda ham Shernaga tenglashadigan ustoz bo‘lmagan. Shernazar shoir Surxondaryo va Qashqadaryo, hatto Turkmanistonning ayrim shahar va qishloqlariga borib, doston aytib, tinglovchilarini hayratda qoldirgan. Sherna xalq orasida o‘z dostonlari bilan ma’lum va mashhur bo‘lgan”⁶.

Sherna baxshi o‘zidan keyin talaygina iste’dodli shogirdlar qoldirgan bo‘lib Mardonaqul Avliyoqul o‘g‘li (Shernaning jiyani), Ahmad yuzboshi, Sadat yuzboshi, Chori yuzboshi, Xoliyor yuzboshi, Qora baxshi, Normurod Shernazar o‘g‘li, (Shernaning o‘g‘li), Jo‘ra Eshmirza o‘g‘li, Xudoyqul laqay, Jon Shomurod o‘g‘li, Chorshanbi baxshi Rahmatullaev shular jumlasidandir. Bu baxshilar ham o‘z vaqtida Sherobod dostonchilik maktabining an‘analariga sodiq qolib ustozlari Shernadek Surxon vohasi aholisi o‘rtasida doston kuylab ma’lum va mashhur bo‘ldilar.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Xalq dostonlarining ijrochilari O‘zbekistonning turli hududlarida turli nomlar bilan yuritiladi. Masalan, Surxondaryo va Qashqadaryoning ayrim joylarida baxshi, yuzboshi, Janubiy Tojikiston o‘zbeklari orasida jirov, jirchi, irchi, oqin, oxun, sannoch yoki sannovchi, shoir,

⁴ Qahhorov A. Yangi dostonlarlar. T., “Fan”, 1998.

⁵ G.Lolayeva “Surxondaryo xalq dostonchilik an‘analari va ularning etnografiyasi” nomli maqola. ISSN: 2181-1601. P:702-705.

⁶ Afzalov M.O‘zbek xalq shoirlari. //Sharq yulduzi. -1996. №10-11.140-144-betlar.

xalfa, kampir va hokazo. Xalq orasida baxshi so'zi turlicha xarakterdagi ikki vazifani bajaruvchi shaxsga nisbatan qo'llangan. 1. Doston kuylovchi. 2. Folbinlik qiluvchi⁷. Sherobod baxshichilik maktabi an'analari o'rta bo'g'in baxshilar safida Xolmurod baxshi, Abdusalom baxshi, Panji baxshi, Gulboy baxshi, Baxshiqul baxshi, To'ran baxshi, Zulxumor baxshi Shernazar qizi, Jovli baxshi, Safar baxshi, Rasul baxshi, Qaxxor baxshi, Alimardon baxshi, Omon baxshi, O'rol baxshi, Shamsiddin baxshi, Shoberdi baxshining o'g'li Ro'ziqul baxshi, Kenja baxshi, Ravshan baxshi kabi baxshilar azaliy ohang navolarini kuylashni davom ettirmoqdalar. Ustozlar izidan borayotgan yosh baxshilar Norali baxshi, Ilhom baxshi, Akram baxshi, Sobir baxshi, Turg'un baxshi, Zokir baxshi, Sherali baxshilar qo'lga soz ushlab, uzun-kalta termalar aytib, davraning to'ridan joy olib dadil izlanmoqdalar⁸.

Sherobod dostonchilik maktabi vorislari ustozlar izidan borib, o'zlari dostonlar to'qib, mustaqil ijod qiluvchi baxshilardandir. Ularning yetti pushti do'mbira chertib, doston aytgan baxshilar sulolasi safida Xushboq baxshi, Chori baxshi, Qora baxshi, Shoberdi baxshi, Shodmon baxshi, va ularning o'nlab shogirdlari yetishib kelmoqda. O'zlari an'anaviy va zamonaviy dostonlar ijod qilib dostonsevar xalqimizga taqdim etishmoqda. Bu ma'lumotlarga asoslanib, bemalol aytish mumkinki, Surxon vohasi-baxshilar yurti. Baxshisi bor yurtning yigitlari Alpomish kabi pahlavon, qizlari Barchinoyday sarviqomat bo'ladi⁹. Bu o'nqir-cho'nqir hayot yo'llarini, uning variant va versiyalarini to'plash, ayni kunlarda baxshilar yurtida, do'mbira daftarida sukut saqlab yotgan yangi-yangi ma'lumotlarni, yig'ib olish doston va termalarni tahlil qilish va chop ettirish navbatdagi vazifamiz hisoblanadi.


Sherobod baxshichilik maktabining yetuk vakillari o'z an'alarini va ijodiy meroslarini keyingi avlodlarga bekamu-ko'st yetkazib berishdek ulug' mas'uliyatni vohada ko'zga ko'ringan baxshilar davom ettirmoqdalar. Jumladan, termalar ustasi Shoberdi baxshi Boltayev, yangi dostonlar yozib uni maromiga yetkazib aytuvchi Abdinazar baxshi Payon o'g'li, o'tkir so'z ustasi va mohir ijrochi Boborahim baxshi Mamatrahimovlar "O'zbekiston xalq baxshisi" degan yuksak unvonga sazovor bo'lganlari holda ko'plab shogirdlar tayyorlagan. Shu sababdan ham Surxon vohasida baxshichilik maktabining o'lmas an'analari rivojlanib, yangi-yangi dostonlar bilan boyitilib, sayqal topib bormoqda.

1-rasm. Sherobod dostonchilik maktabidan yetishib chiqqan Bobo baxshi va uning shogirdlari

⁷ Tursunov S, Paradayev T, Tursunova N, Murtazaev B. O'zbekistonda baxshichilik san'atning shakllanishi va taraqqiyoti tarixi. Toshkent.; 2015. "Tafakkur".B 33.

⁸G.Ahmedova., O'zbekistonning janubiy hududlarida baxshichilik an'alarining etnomadaniy jarayonlarga ta'siri. Dissertatsiya. Termiz-2022.

⁹Tursunov S, Paradayev T, Tursunova N, Murtazayev B. O'zbekistonda baxshichilik san'atning shakllanishi va taraqqiyoti tarixi. Toshkent.; 2015. "Tafakkur".B 34.



XULOSA.

O'zbek xalq dostonlari qadimiy ajdodlarimizning turmush tarzi va an'alarini asrlarosha mukammallashib kelayotgan boy ma'naviy merosi bilan bog'liqdir. Har bir dostonlarning kelib chiqishi ajdodlarimizning xo'jalik, madaniy hamda siyosiy hayotida yuz bergan yutuqlari, kamchiliklari, xursandchiligi, g'am-tashvishlari, oilaviy, mahalla hayotidagi kechirmalari zaminida paydo bo'lgan va sayqallangan. Xalq qo'shiqlarining asosi esa xalqimizning tub o'troq xalq bo'lganligi, shuningdek, qo'shnilar, yarim ko'chmanchi va ko'chmanchi xalqlar bilan muntazam aloqada bo'lishi tufayli, ularning o'zaro hamkorligida madaniy aloqada bo'lganligini samarasi natijasida ko'payib, boyib borganligini ham alohida ta'kidlash zarurdir. Eng muhimi o'zbek xalqi ajdodlari o'ziga xos moddiy va ma'naviy madaniyatlarning ilk ildizlariga asos solgan xalq bo'lib hisoblanadi. Insoniyat faoliyatining tadrijiy taraqqiyoti va uzoq davrlik tarixiy saboqlar tufayli xalqimizning xalq og'zaki ijodi faoliyati bilan bog'liq qo'shiqlar ta'sirida an'ana va udumlari shakllanib, sayqallanib yangi tushunchalar bilan boyib borgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Afzalov M. O'zbek xalq shoirlari. //Sharq yulduzi. -1996. №10-11.140-144-betlar.
2. G.Ahmedova., O'zbekistonning janubiy hududlarida baxshichilik an'alarining etnomadaniy jarayonlarga ta'siri. Dissertatsiya. Termiz-2022.
3. Qahhorov A. Yangi dostonlar. T., "Fan", 1998.
4. Tursunov S, Paradayev T, Tursunova N, Murtazayev B. O'zbekistonda baxshichilik san'atning shakllanishi va taraqqiyoti tarixi. Toshkent.; 2015. "Tafakkur".B 34.
5. Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. –С.
6. Жирмунский В.М. Тюркский героический эпос. –Л., 1974

7. Zarifov H. T. O'zbek folklori. Pedagogika institutlari uchun xrestomatiya
8. G.Lolayeva "Surxondaryo xalq dostonchilik an'analari va ularning etnografiyasi" nomli maqola. ISSN: 2181-1601. P:702-705.
9. Denov tumani davlat arxivi.6392-jamg'arma,1-ro'yxat, 48-ish